

«SHARQ-U G'ARB: NAVOIY VA GYOTE»

mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari

Articles of international scientific-theoretical conference on

«EAST AND WEST: NAVOI AND GOETHE»



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ALISHER NAVAI TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK
LANGUAGE AND LITERATURE
FACULTY OF UZBEK PHILOLOGY
DEPARTMENT OF «WORLD OF LITERATURE AND COMPARATIVE
LITERATURE STUDIES»

**«SHARQ-U G‘ARB:
NAVOIY VA GYOTE»**

*mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
2023-yil, 21-iyun*

Articles of international scientific-theoretical conference on

**«EAST AND WEST:
NAVAI AND GOETHE»**

June 21, 2023

Ozoda TOJIBOYEVA,
PhD, dotsent
(ToshDO‘TAU, O‘zbekiston)
ozoda2677@mail.ru

TIMSOL – MOHIYATNI ANGLATISH VOSITASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning oshiqona g‘azallarida qo‘llanadigan timsollar va ularning g‘azaldagi vazifasi yoritilgan. Tabiiy ravishda tushunchalarni katta va kichik, juft tarzda qo‘llash orqali asl mohiyatni anglatish mahorati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: g‘azal, oshiq, ma‘shuqa, timsol, poetik mahorat.

Abstract. This article describes the symbols used in Alisher Navoi’s love ghazals and their functions in the ghazal. Naturally, the ability to express the essence with the help of the concepts of big and small, in pairs, was analyzed.

Keywords: gazelle, lover, mistress, symbol, poetic skill.

Alisher Navoiy ijodi bizni o‘rab turgan olamning go‘zalligi va olamni yaratishdagi Azal Me‘morining qudrati, mahoratini anglash, olam orqali uning Yaratuvchisini idrok etish, inson bu yaratilgan olamda o‘zgacha muhabbat bilan yaratilgan oliy maxluqot – yer yuzining gultoji ekanligi, u o‘zligini izlab-istab topishi va kamolotga yetishi, xalqqa nafi tegadigan odam bo‘lib yashashi lozimligini o‘rgatadi. Insonni yaratilgan olamlar ichra sir-sinoatlarga to‘la yana bir olam deb tushuntiradi. Jumladan, Ruh ul quds» qasidasida inson degan olam yaratding, unga taxt qo‘yding, taxtga ko‘ngil shoh, aql vazir bo‘ldi, deya tasvirlaydi. Dunyoga kelishdan maqsadimiz va burchimiz, surat-u siyrat go‘zalligi, qalb pokligi, hayotda aslida intilishimiz lozim bo‘lgan pog‘onalar tinimsiz targ‘ib qilinadi. Umuman, Alisher Navoiy asarlari insonni tarbiyalash va unga in‘om etilgan barcha yaratilarning Egasini anglatish yo‘lida eng yaxshi ma‘naviy, ma‘rifiy qurol vazifasini bajaradi. Obrazli, betakror tashbehlarda o‘z ifodasini topgan fikrlar orqali ilohiy ma‘rifatni anglatish Alisher Navoiy ijodida o‘zining takomil bosqichiga yetgan.

Akademik Aliybeg Rustamiy «Hayrat ul-abror»ning birinchi bobiga bag‘ishlangan maqolasida ana shu bog‘liqlikni nasriy sarlavhadagi «har ko‘ngul g‘unchasig‘a bir husn guli sari aning silsila-yi shavqidin vobastaliqu» jumlasida olamning kamolotga yetishga bo‘lgan harakatini insonga qiyoslab quyidagicha sharhlaydi: «Insonda bor sifatlar boshqa mavjudotda ham bor: g‘uncha o‘z husni kamoliga intilib, ochilib gul bo‘ladi. Inson ko‘ngli ham husnni idrok etsa, ochilib kamol topadi. Buni idrok etolmagan ko‘ngil ochilmagan g‘unchadek qon bo‘ladi» [2: 138].

Alisher Navoiyning oshiqona, orifona, rindona gʻazallarida ana shu ilohiy maʼrifat shoirning yuksak badiiy tafakkuri orqali idrok etiladi va oʻziga xos badiiy timsollar vositasida yuzaga chiqadi.

«Gʻaroyib us-sigʻar» devonida berilgan «*Har yon ul yuzda ter oqizdingmu*» deb boshlanuvchi 510-gʻazalda ana shunday maʼshuqa va tabiat jismlari orqali olamning Yaratuvchisi va Uning bir-u borligi madh etiladi [1: 531]. Gʻazal oshiqona mavzuda boʻlib, matlaʼdagi fikr keyingi baytlarda tadrijiy rivojlanib borgan va oxirgi baytda xulosalangan. Shoir ayni aytmoqchi boʻlgan fikr maqtaʼda oydinlashadi, ungacha tasvirlangan holat, timsollar oxirgi xulosani anglatishga, obrazli tasavvur qilishga xizmat qilgan. Agar gul, gulzor soʻzlari qoʻllangan gʻazallarda shoir qizil rangni anglatish uchun gʻazal oxiriga qadar koʻplab gul soʻzi va rangiga muqobil tushunchalarni saralab yigʻsa, mazkur gʻazalda oddiy ter tomchilariga qiyosan suv, shabnam, koʻz yosh soʻzlarini qoʻllab, ajoyib kompozitsiya hosil qilgan.

*Har yon ul yuzda ter oqizdingmu,
Yo oqar mehr chashmasidin su?*

Yuzdan har yonga ter oqizdingmu, deb soʻraydi oshiq va oʻzi javobini topib, mabodo bu terlar mehr chashmasidan oqayotgan suv emasmi, deb soʻraydi. Baytda soʻroq ham, soʻroqni tasdiqlash uchun javobi ham bor. Yorning yuzidan oqayotgan terlar shu darajada shaffof, tiniqki, bu terlarning, bu yangligʻ tiniqlikning manbai qaerda? Ikkinchi misraga eʼtibor qilsak, ayni javobi koʻrsatilgan. Mehr – quyosh, taʼrifda yuz quyoshga oʻxshatilmoqda. Yuz quyoshdek olamni, oshiq koʻnglini munavvar etmoqda, yoritmoqda. Yuzingdagi termi, yo olamni munavvar qilayotgan quyoshdek yuzingdan qaynab chiqayotgan buloqmi? Chashma – buloq, tabiiy ravishda yerdan sizib chiqadigan toza suv. Birgina terni ifodalash uchun qoʻllangan vositalar keyingi misralarda yanada tadrijiy davom ettiriladi.

*Qoldi xoling ter ostida, yoxud
Damin asrar sugʻa choʻmub hindu.*

Qora xol yuzga goʻzallik bagʻishlab turadi. Aslida shaffof ter tomchilari tagida xol koʻrinib turadi, aslo toʻsmaydi. Shoir bu oʻrinda xolni hind kishisiga oʻxshatadi. Hindu suv ostiga choʻmib, suvning ostida nafasini saqlab turgani, xolning ter ostida qolganiga mengzaladi. Hinduning suvda turgani vaqtinchalik boʻlganidan xolning ham bu holati vaqtinchalik. Parda ketib, yuzning asli oʻzini namoyon etishni boshlaydi.

*Terdin ul yuzga boʻlmish oʻzga safo,
Qatradin garchi tiyradur koʻzgu.*

Terdan yuz toza, pokiza boʻladi, tomchidan garchi koʻzgu xiralashsa ham. Agar oyna yuziga suv sepib, unga qaralsa, aksni xira koʻrsatadi. Shoir qatra – suv

tomchilaridan ko‘zgu garchi xira tortsa ham, yor yuzidagi ter yuzga o‘zgacha musaffolik bag‘ishlaydi, deya uqtiradi. Aslida suv oynani ham yuvib, pokiza qiladi, g‘uborlardan tozalaydi, oyna yuzi ravshanlashadi. Aksni ilgarigidan ham tiniqroq ko‘rsatadi.

Tasavvufda ko‘zgu – olam deb tushuniladi. Ko‘zguning tiniq bo‘lishi, Alloh taolo yaratgan jamiki olamni yanada aniqroq ilg‘ay olishimiz, olamni va uning yaratuvchisini pokiza qalb bilan, go‘zal taassurot va tasvirotlarda bilib borishimiz deyish mumkin.

Gulda shabnam ajab xud ermas, lek

Oyda anjum g‘arib erur asru.

Navoiyning yuksak badiiy tafakkuriga monand fikrlar ham yuksalib borgan. Yuzdagi ter guldagi shabnamga o‘xshatiladi. Shabnam, shudring erta tongda tundagi havo haroratining pastligi va gulning ichkaridagi issiq harorati natijasida gulning o‘zidan sizib chiqadi. Erta tongda shu darajada chiroyli, shaffof suv tomchisi hosil bo‘ladiki, bu hali ochilmagan gulning g‘unchasida aniqroq ko‘rinadi. Yomg‘ir yog‘masa ham shudringning hosil bo‘lgani ajoyib hodisa. Shudring ter kabi tanadan sizib chiqqan, qolaversa u oshiqdan baxtliroq, o‘shal gulni o‘pib turibdi. Hayajondan oshiqni oldida ma‘shuqaning yuzida hosil bo‘lgan ter gulning ustidagi shudringga o‘xshatilishi bu qiyosi yo‘q ta‘rif. Misra mazmunini aytilish ohangiga ko‘ra o‘zgartirish mumkin, Agar «*Gulda shabnam ajab, xud ermas*» shaklida qo‘llasak ham gulda shabnamning bo‘lgani ajoyib ma‘nosi anglashiladi.

Ikkinchi misrada fikr yanada kuchaytiriladi – oyni oldida yulduzlar g‘arib ko‘rinadi. Tunda osmonga qaragan odam oyni yonida turgan yulduzlar emas, oyga e‘tibor qaratadi. Oydagi ulkanlik, yorug‘likning oldida yulduzlar arzimas bo‘lib qoladi. Bu o‘rinda yor jamoli oyga, ter tomchilari yulduzlarga qiyos qilinmoqda. Tabiiyki, yulduzlarga nisbatan oyning qadri baland.

Senda ter, menda ashkdur yuz uza,

Yig‘lasam men, sanga kelur kulgu.

Yordagi holat oshiqqa ham ko‘chadi. Bu o‘rinda tasvir tabiiy ravishda jonli chiqqan. Yorga yetolmagan oshiqqa behad iztirob yetgan, natijada ko‘z yoshlari yuz uzra to‘kila boshlaydi. Senda ter, menda ko‘z yosh, men yig‘lasam, senga kulgu kelar, deya fig‘on qiladi. Bu o‘rinda suv va terda yaqinlik bor, tarkiban suv, lekin holat bo‘yicha bir-birining ziddi, biri rohat, biri azob, kulgu – yig‘i holatini ifoda etgan.

Uyolib ter oqizdi anjum emas,

Shomi hajrida torami miynu.

Yorning yuzidan oqayotgan ter tomchilari yulduzlar emas, deya yuqoridagi fikrni inkor qiladi. Bu o‘rinda *torami miynu* so‘zining juda ko‘p ma‘nolari

borligini inobatga olish lozim. *Toram* – baland, *miynu* – zangori osmon, jannat, zabarjad (ko‘k tosh), rangdor shisha, zangori osmon kabi turfa ma’nolari mavjud bo‘lib, barchasida moviy, ulug‘vorlik ma’nosi yetakchilik qiladi. Baytdagi ma’noga tatbiqan qo‘llasak, yorning yuzidan oqayotgan ter tomchilarini moviy osmon rangidagi zabarjadga, moviy rangli shishaga qiyoslash mumkin. Hijron tunidagi oshiq uchun bu terlar xuddi ulug‘vor osmon kabi moviy rang shishalar kabidir.

*Der Navoiyki g‘ayr emas mavjud,
Turfa so‘z «lo iloha illo hu».*

Oxirgi baytda Navoiy «Lo iloha illo hu» – Undan o‘zga iloh yo‘qdir, kalimasi bilan Undan o‘zga g‘ayr mavjud emas, deya fikrini tugatadi. Yuqorida yor timsolida ta’riflangan yor yuzi va ter tomchisi, yuz va ko‘z yosh, oy va yulduz, gul va shabnam kabi timsollarning juft tarzda qo‘llanish sababi oxirgi baytga kelib ochilgan. Demak, g‘azaldan anglashiladiki, ta’riflar dunyo go‘zalidan Iloh go‘zalligi sari ko‘tarilib borgan. E’tibor qilsak, ularning barchasi aslining oldida arzimas. Aslning yonidagi zarralar uning o‘rmini bosmaydi, e’tibor baribir aslga qaratiladi. Demak, dunyoni yaratgan Alloh taoloning o‘zi barcha yaratilgan narsalarning manbai, yaratuvchisi. Shunday ekan, Yaratuvchining O‘zi asl, sof, qolgan hammasi nisbiy, o‘zgasi mavjud emas.

Adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. *Ғаройиб ус-сиғар. Ҳазойин ул-маоний*. Биринчи девон. – Тошкент: Tamaddun, 2011.
2. Рустамов А. «Ҳайрат ул-аброр»даги биринчи сарлавҳанинг шарҳи // Шарқ юлдузи. 11-сон. – Тошкент, 1983. – Б. 135-138.

24.	РОВИЯЖОН АБДУЛЛАЕВА	НАВОИЙ ВА ГЁТЕ: ҲАЁТИЙ МУШТАРАК НУҚТАЛАР	181
25.	OZODA TOJBOYEVA	TIMSOL – MONIYATNI ANGLATISH VOSITASI	195
26.	KOMILJON NAMROYEV	NAVOIY VA GYOTE NIKMATLARINING PAREMIK XUSUSIYATLARI	199
27.	ОДИЛЖОН САФАРОВ, УМИДА ОМОНОВА	ТАРЖИМАВИЙ ТАФАККУРНИ ТЎҒРИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	207
28.	НАСИБА БОЗОРОВА	«ЁШ ВЕРТЕРНИНГ ИЗТИРОБЛАРИ»ДА ҲУҚУҚИЙ ҚАРАШЛАР	216
29.	ГУЛБАҲОР АШУРОВА	НАВОИЙ ОБРАЗИ ВА ЯНГИЧА ТАЛҚИН	220
30.	БАҲОР ТЎРАЕВА	НАВОИЙ ВА ГЁТЕ: ШЕЪР, ШОИРЛИК ХУСУСИДА	227
31.	LALƏ ƏLƏKBƏROVA	ƏLİŞİR NƏVAİNİN XX ƏSR AZƏRBAYCAN ŞAİRLƏRİNƏ TƏSİRİ	232
32.	ТОЖИ НОРОВ	НАВОИЙ ФАЛСАФАСИДА КОСМОС, МАКОН ВА ЗАМОН	239
33.	АЛИШЕР РАЗЗОҚОВ	НАВОИЙ ИЖОДИДА АРАСТУ ОБРАЗИНИНГ ТАСАВВУФИЙ ТАЛҚИНИ	246
34.	МАНМАДИҲОР АСАДОВ	SIZIF HAQIDA MIF: KAMYU VA XURSHID DO‘STMUHAMMAD	251
35.	ЕКАТЕРИНА РОГАЧЕВА	BERÜHMTE LITERATURFIGUREN AUD DEM OSTEN UND WESTEN	260
36.	KANIMKOOL TADJIYEV	HAMLET AND HIS CHARACTER	264
37.	SHANNOZA RAZAKOVA	EAST AND WEST, NAVOI AND GOETHE	270
38.	СОБИТ АВЕЗОВ	НАВОИЙ ВА ГЁТЕ: МАЪРИФИЙ ҚАРАШЛАР УЙҒУНЛИГИ	274
39.	АЛИШЕР МАҲМУДОВ	ГЁТЕ ИЖОДИДА ШАРҚ ГУМАНИЗМИ	278
40.	МАХЛИЁ МИРЗААХМЕДОВА	ГЁТЕ АСАРЛАРИДА МАЪРИФАТЛИ ШАХС ТАЛҚИНИ	285
41.	МУСТАФО БАЙЭШАНОВ	ИСТОРИЧЕСКИЕ ЛИЧНОСТИ УЗБЕКИСТАНА В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ В.И. ДАЛЯ	290
42.	НАФОСАТ ЎРОҚОВА	ГЁТЕ ДЕВОНИДА МАСНАВИЙ ШАКЛИ	309
43.	ЗАРИНА РАҲМОНОВА	НАВОИЙ ВА ГЁТЕ ИЖОДИДА ИШҚ ТАЛҚИНИ	314
44.	MALIKA MANSUROVA	ГЁТЕ ИЖОДИДА ШАРҚ АЛЛОМАЛАРИ ҚАРАШЛАРИНИНГ ЎРНИ	320
45.	БЕКМУРОД БОҲЗОҚОВ	AHMAD TAROZIY VA SANOIYI' ILMLARI	324

2-ШЎБА.

ШАРҚ ВА ҒАРБ МАЪРИФАТЧИЛИГИНИНГ УМУМНАЗАРИЙ МУАММОЛАРИ

46.	ГУЛНОЗА ЭРНАЗАРОВА	МИЛЛИЯТ ВА АДАБИЁТ	330
-----	--------------------	--------------------	-----